



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
DAVLAT TEST MARKAZI

REPITISION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____ F.I.O. _____ Imzo _____

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo‘yicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag‘i raqami bir xil bo‘lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma‘lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to‘ldirilgan yoki to‘ldirilmagan va imzosi qo‘yilmagan hollarda e‘tirozlar ko‘rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: **33 (516972)**

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyoti

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: **1906865**

Toshkent – 2015



ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Tarkibida tor va keng lablanmagan unli qatnashgan soʻzni aniqlang.
A) koʻrik B) okean C) bilak D) koʻkrak
2. Yetakchi va koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmasi berilmagan gapni toping.
A) Ochkoʻz bogʻ egasi olmaning boridan ham ajralib qoldi.
B) Mirsodiq eshikni ochib yubordi va sevini ketdi.
C) Oʻyin-kulgi, askiya yarim kechagacha choʻzil ketdi.
D) Choyxonachi patnida non bilan qand-qurs olib keldi.
3. Quyida keltirilgan bogʻlovchisiz qoʻshma gapdagi qavslar oʻrnida qanday tinish belgisi ishlatiladi?
Yulduzlarni xayolida har xil ranglarga boʻyab koʻrdi() yulduzlar oʻz rangida miltillab turaverdi.
A) tire B) nuqtali vergul C) ikki nuqta D) vergul
4. Dunyo omonat binoga, boʻyi, vafosi yoʻq gulshanga, jafokor tuban ayyoraga oʻxshatilgan va unga koʻngil berib, aldanib qolmaslikka chaqirilgan tarjiʼband muallifini aniqlang.
A) Navoiy B) Yassaviy C) Ogahiy D) Furqat
5. Bosh gapi egasi nomaʼlum gap boʻlgan ergashgan qoʻshma gapni aniqlang.
A) Odamning shunday doʻstlari boʻladiki, ularning har biri bilan feʼliga qarab gaplashishga toʻgʻri keladi.
B) Dushman oz deb gʻofil boʻlmaslik kerak, chunki koʻp oʻtinni ozgina oʻt kuydiradi.
C) Odamlar siz bilan odatdagidek gaplashishni xohlashmasa, aybni oʻzingizdan qidiring.
D) Har kishi el uchun topsa agar ranj,
Oqibat muyassar boʻlar unga ganj.
6. Haynrix Haynening 30 ta davlatchaga boʻlinib yashayotgan Germaniyaning nochor siyosiy-iqtisodiy ahvolini achinib yozgan ocherklardan iborat asarini belgilang.
A) "Germaniya. Qish ertagi" B) "Yoʻl lavhalari"
C) "Eʼtirof" D) "Qullar kemasi"
7. Millatning bu asl farzandlari oʻz orzulari haqida emas, xalq hayoti, uning ijtimoiy ahvoli yaxshilanishi uchun qaygʻurdilar, ularga juda koʻp zugʻum qilsalar ham, oʻz dunyoqarashlarini oʻzgartirmadilar, hatto bu yoʻlda oʻzlarini qurbon qildilar.
Ushbu gapda ishtirok etgan yasama soʻzlar sonini toping.
A) 6 ta B) 5 ta C) 3 ta D) 4 ta
8. Qaysi javobda yoʻnalish maʼnosini ifodalagan sof koʻmakchi(lar) toʻgʻri koʻrsatilgan?
1) tomon; 2) sari; 3) qarab; 4) qadar; 5) sayin; 6) boʻylab
A) 1, 2, 3, 6 B) 2 C) 2, 4 D) 1, 2, 5
9. Juft-juft matnlar va juft-juft naqarotlardan tashkil topgan xalq qoʻshigʻi nomini belgilang.
A) "Maydagul" B) "Chittigul"
C) "Boshginam ogʻriydi" D) "Boychechak"
10. Jahonda nimaiki oq, unga ona suti timsol; nimaiki joʻshqin, unga ham ona mehri timsol; nimaiki chidamli, sabr-toqatli, unga ham ona irodasi timsol; kimki pok muhabbat, mehridaryolik daʼvo qilsa, onaning pok qalbi timsol.
Berilgan gapda sifat turkumiga oid soʻzlar necha oʻrinda qoʻllangan?
A) 5 B) 4 C) 7 D) 6
11. Qaysi javobda keltirilgan gapda soʻz qoʻllash bilan bogʻliq xatolikka yoʻl qoʻyilgan?
A) Qanotlarning mallarang, jussang kichikligidan koʻrinarkansan arang.
B) Podsho vazir-u ayonlari davrasida otdan tushib, togʻ bagʻriga qarabdi.
C) Sening vujudingda sirlilikning mavjudligini birinchi bor uchratanimdayoq payqagan edim.
D) Shu chogʻ artilleriya qismlari ogʻir toʻplar bilan ota boshladi.
12. **Sen boʻlmasang soʻzlarning Bagʻri ming tilim boʻlar, Onajon, ona tilim, Mening shohona tilim.** (Barot Yarash)
Ushbu sheʼriy parchada soʻz yasovchi qoʻshimchalar necha oʻrinda ishtirok etgan?
A) 4 B) 3 C) 2 D) 1
13. Qaysi gapda ham tovush orttirilishi, ham tushishi hodisasi sodir boʻlgan?
A) U xuddi shunday tanholikni tusab turgan edi.
B) Gʻam boʻyinga bogʻlangan tosh boʻlsa, quvonch yelkadan oʻsib chiqqan qanot.
C) Kampir uxlovmadi, u yoqdan bu yoqqa agʻdarilaverib oxiri oʻrnidan turdi.
D) Dildor oʻsha issiq kunda koʻngli ketib qolgandan beri endi koʻchaga chiqishi edi.
14. Quyida keltirilgan bayt kimning ijodidan olingan va unda qanday sheʼriy sanʼat qoʻllangan?
Axi erni oʻggil oʻgar ersa sen Baxilga qatigʻ ya oʻqin kizlagil.
A) Mahmud Koshgʻariy; tashbeh
B) Yusuf Xos Hojib; mubolagʻa
C) Ahmad Yugnakiy; tazod
D) Abu Mansur as-Saolibi; tazod
15. Qaysi javobda keltrilgan gapda birdan ortiq toʻliqsiz feʼl ishtirok etgan?
A) Bir soʻz bilan soppa-sogʻ odamni oʻldirish yoki bemorni oyoqqa turgʻizib yuborish mumkin ekan.
B) E, attang, qizim oʻsha kuni shotut yeb edi.
C) U hozir charogʻbonlik qilayotgan emish.
D) Oʻjarni urmay-soʻkmay yoʻlga sol deganlari bejiz emas ekan.
16. Har xil odamlarning feʼl-atvori va ahvoli; yaxshi feʼl xosiyati va yomon xislat kasofati; turli foydali kuzatishlar va misollar haqida uch qismdan iborat asarni aniqlang.
A) "Saddi Iskandariy" B) "Mahbub ul-qulub"
C) "Mezon ul-avzon" D) "Hayrat ul-abror"
17. Qaysi javobda keltirilgan asarda oʻzini pahlavonlik sirlarini oʻrgatgan ustozidan ortiq bilib, u bilan kurash tushishga daʼvo qilgan yigit haqida hikoya qilingan?
A) Yusuf Xos Hojib, "Qutadgʻu bilig"
B) Sayfi Saroyi, "Gulstoni bit-turkiy"
C) Ahmad Yugnakiy, "Hibatul-haqoyiq"
D) Gulxaniy, "Zarbulmasal"
18. Jadid adabiyotining qaysi namoyandasi buyuk boshqird olimi Zaki Validiy va yosh oʻzbek adibi Fitrat asarlari taʼsirida mudarris emas, "Oʻzbek milliy yozuvchisi" boʻlishga ahd qiladi?
A) Hamza B) Qodiriy C) Usmon Nosir D) Choʻlpon
19. Qaysi soʻzlar tarkibida shakldoshlik xususiyatiga ega boʻlgan koʻmakchi morfemalar soni ikkita emas?
1) chidamlilik; 2) insoniylik; 3) dehqonchilik; 4) ustachilik; 5) tugʻilmoq; 6) sanogʻi; 7) yashamasa
A) 1, 2, 5 B) 1, 5 C) 2, 3, 4, 6, 7 D) 1, 2, 5, 6, 7

20. Quyida keltirilgan parcha qaysi asardan olingan va unda nima tasvirlangan?
"... oyoq qo'ygani yer o'pirilib tushib, tubsiz o'ngirga aylandi. U oyog'ini tortib olib, orqaga tisarildi. Qorayib turgan o'ngirning labida qandaydir daraxtning ildizi ko'rindi. ... tubsiz jarga yiqilay deganda shu daraxtni ikki qo'llab tutib qoldi. Bir payt daraxt ham ildizi bilan sug'urilib chiqa boshladi".
- A) "Avlodlar dovoni" romani, Humoyunning tushi
B) "Yulduzli tunlar" romani, Bobur holati
C) "Ulug'bek xazinasi" romani, Abdullatif tushi
D) "Hellados" hikoyasi, Yanguli holati
21. Tarkibida ravish o'rnida kelgan sifat mavjud bo'lgan so'z birikmasini aniqlang.
A) tiniq daryo B) tez kelmoq C) yaxshi kiyingan
D) ko'p odam
22. Qaysi javobda faqat yasama ravishlar keltirilgan?
A) ochiqchasiga, ancha, qo'qqisdan
B) ataylab, tezkor, mardlaracha
C) birpas, dastlabki, birdaniga
D) tonnalab, butunlay, o'zicha
23. Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) -loq, -choq, -chi, -dosh B) -gar, -chi, -k, -don
C) -lik, -inch, -ch, -dosh D) -xon, -chi, -dosh
24. Sifatdosh bilan kelgan sof ko'makchi qatnashgan gapni aniqlang.
A) O'zligini anglamagan, manqurtlik tomon ketayotgan odamlar bilan yangi jamiyatni qurib bo'lmaydi.
B) Ba'zilar ovqatlanish uchun yashaydilar.
C) Yaxshi o'qigani uchun u mukofotlandi.
D) Maktabga bormaganim sababli noxush vaziyatning guvohi bo'lib qoldim.
25. Ilmiy uslubning xususiyatlari haqida berilgan qaysi hukm(lar) to'g'ri?
1) sof ilmiy uslubda fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi;
2) ilmiy-ommabop uslubda ma'lum fan sohasiga doir atamalar qo'llansa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun izohlanadi;
3) tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq turadi.
4) ilmiy ommabop uslubda eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish orqali ilmiy xulosalarni bayon qilish kuchli bo'ladi.
A) 1, 2 B) 1, 4 C) 4 D) 2, 3
26. Tariqatga kirgan odam tasavvufda qanday ataladi?
A) solik, darvesh B) pir, so'fiy C) darvesh, murid, pir
D) pir, murshid
27. Qaysi javobda Mirtemirning "Surat" asari janri to'g'ri ko'satilgan?
A) lirik qissa B) ballada C) dramatik doston
D) lirik hikoya
28. Qaysi javobda tarkibida belgilash olmoshi qo'llangan egasi noma'lum gap keltirilgan?
A) Har qanday ishda mashaqqat borligini yodda tutish kerak.
B) Vatanni har jihatdan yuksaltirishga va ko'ksini qalqon qilib himoya qilishga da'vat etadi.
C) Har kim ekanini o'radi.
D) O'z o'rnida aytilmagan so'z hech kim yo'q yerda chalingan kuyga o'xshaydi.
29. Quyidagi misralar muallifi kim va unda qanday badiiy san'atdan foydalanilgan?
Shamollarga bitib sho'x kuy
Taklif etdim bog'imga.
Chamanlardan ular xushbo'y
Sepishdi dimog'imga.
A) Erkin Vohidov, tashbeh B) Usmon Azim, istiora
C) Xayriddin Saloh, tashxis D) Abdulla Oripov, sifatlash
30. Javoblardan to'g'ri yozilgan nomni aniqlang.
A) Xususiy Tadbirkorlik va Kichik Biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi
B) Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab quvvatlash jamg'armasi
C) Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi
D) Xususiy tadbirkorlik va Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi
31. Dadasi har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytishda ham uni qo'lga olar, suyar va yuzlarini, sochlarini silab qo'yar edi.
Ushbu gapda qaysi gap bo'laklari uyushgan?
A) payt holi, vositali to'ldiruvchi, kesim
B) vositali va vositasiz to'ldiruvchi, kesim
C) payt holi, vositasiz to'ldiruvchi, ravish holi
D) payt holi, vositasiz to'ldiruvchi, kesim
32. Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda ko'chirma gap tarkibidagi qaysi bo'lak lik, ekanlik kabi shakllarni olib o'z vazifasini o'zgartiradi?
A) to'ldiruvchi B) ega C) kesim D) aniqlovchi
33. Hukumi tog' nomi qaysi dostonda keltirilgan?
A) "Rustamxon" B) "Alpomish" C) "Ravshan"
D) "Kuntug'mish"
34. Vositasiz to'ldiruvchi vositali to'ldiruvchiga ergashib kelgan gapni aniqlang.
A) Qiy-chuv bilan ularni yengib bo'lmaydi.
B) Dilshod maktubni xolasiga berib, ko'chaga chiqib ketdi.
C) Sizni xafa qilishga botin olmaydi.
D) Sizni kutib olish uchun keldim.
35. Qaysi so'zning faqat ko'makchi morfemasi shakldoshlik xususiyatiga ega?
A) terim B) kechik C) qisqich D) toray
36. Murakkab fe'l kesimli gap berilgan javobni aniqlang.
A) Ilm o'rganmoq – e'tiqodni mustahkamlash uchundir, ammo boylik orttirmoq uchun emas.
B) Tun o'z o'rnini tongga bo'shatib berdi.
C) U paytlarda xo'jalikda ko'zga ko'rinadigan muhtasham imoratning o'zi yo'q edi.
D) Ma'lumki, koinotdagi barcha narsa muayyan va ma'lum qonunga bo'ysunadi.
- BIOLOGIYA**
37. Har xil turga mansub organizmlar umumlashmasining o'zaro va muhit bilan munosabatlarini ekologiyaning qaysi bo'limi o'rganadi?
A) autekologiya B) tarixiy ekologiya C) sinekologiya
D) evolyutsion ekologiya

38. Qaysi javobda barglari novdada qarama-qarshi joylashgan, gullari qiyshiq o'simliklar to'g'ri ko'rsatilgan?
1) kiyiko't; 2) beda; 3) loviya; 4) marmarak; 5) isirg'ao't; 6) nastarin; 7) rayhon; 8) afsonak
A) 2, 4, 6, 8 B) 1, 6, 7 C) 1, 5, 7 D) 2, 3, 5, 8
39. Quyidagi qaysi tuzilmalardan DNK bo'lagini klonlashda vektor sifatida foydalanish mumkin?
1) virus; 2) EcoRI; 3) fag; 4) transpozon; 5) pBR-322; 6) BamHI; 7) transmissibl plazmid; 8) restriktaza; 9) Ti pazmidasi.
A) 1, 2, 5, 8, 9 B) 1, 3, 4, 5, 7 C) 2, 3, 4, 7, 8 D) 1, 2, 3, 4, 6
40. Sistematik guruhlar eng kattasidan eng kichigiga qarab to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirilgan javobni aniqlang.
1) qoqio'tdosh; 2) qora jusan; 3) magnoliyasimon; 4) ikki urug'pallali; 5) shuvoq; 6) magnoliyatoifa; 7) yopiq urug'li; 8) ziradosh; 9) alqor
A) 5, 2, 8, 4, 7 B) 6, 3, 1, 5, 2 C) 2, 5, 8, 4, 6 D) 2, 9, 8, 4, 7
41. Filogenezini postembrional davrda ham takrorlaydigan organizmlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
1) gatteriya; 2) nereida; 3) chigirtka; 4) yomg'ir chuvalchangi; 5) jigar qurti; 6) qurbaqa; 7) podalariy; 8) opossum; 9) burga; 10) shinshilla
A) 2, 5, 7, 9 B) 2, 4, 5, 6, 8 C) 5, 6, 7, 10 D) 1, 2, 3, 7
42. Drozofilada ko'zning oq rangda bo'lishi retsessiv, qizil rangda bo'lishi dominant hamda jinsga bog'liq holda irsiylanadi. Erkak drozofila oq ko'zli bo'lsa, gametogenez jarayonida bitta birlamchi jinsiy hujayradan hosil bo'lgan spermatozoidlarning nechitasi ushbu belgi bo'yicha dominant genga ega bo'ladi?
A) 4 ta B) 0 ta C) 1 ta D) 2 ta
43. Qaysi javobda dengiz tulkisi, dengiz masxarabozi, dengiz mushugining ayirish sistemasidagi o'xshashlik(lar) to'g'ri ko'rsatilgan?
1) juft tasmasimon buyragi va ularning bel umurtqasi ro'parasida joylashganligi; 2) siydik yo'lining kloakaga ochilishi; 3) buyragi qovuqqa ikki siydik yo'li orqali bog'langanligi; 4) yagona tasmasimon buyragi borligi
A) 2 B) 1, 2 C) 2, 4 D) 3
44. Bakteriyalar tomonidan elementar azotning o'zlashtirilishi (a) va atmosferaga ajratilishi (b) qanday nomlanadi?
A) a-azotfiksatsiya; b-denitrifikatsiya
B) a-denitrifikatsiya; b-azotfiksatsiya
C) a-ammonifikatsiya; b-denitrifikatsiya
D) a-ammonifikatsiya; b-nitrifikatsiya
45. Suqsun va gaval uchun umumiy belgilarni ko'rsating.
1) rivojlanishi metamorfozsiz; 2) oyoqlaridagi parda tortilgan barmoqlar soni; 3) yuragining kameralari soni; 4) tana haroratining doimiyliigi; 5) gastrulyatsiya turi.
A) 1, 3, 4 B) 2, 3, 5 C) 1, 2, 5 D) 1, 3, 5
46. Qaysi javobda changchi iplarining hammasi qo'shilgan o'simliklar to'g'ri ko'rsatilgan?
1) oqquray; 2) afsonak; 3) oshqovoq; 4) kanop; 5) gulxayri; 6) itqovun; 7) qozonyuv'ich; 8) soya; 9) tugmachagul
A) 4, 5, 9 B) 3, 6, 7 C) 1, 4, 5 D) 1, 2, 8
47. O'simlik hujayrasidagi vakuolaga xos bo'lgan xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) hujayra shirasi bilan to'lgan; 2) hazm shirasi bilan to'lgan; 3) faqat ovalsimon shaklda; 4) turli shaklda; 5) endoplazmatik to'r membranasi hisobiga hosil bo'lgan; 6) Golji majmuasidan hosil bo'lgan; 7) turgor holatni ta'minlaydi; 8) buferlik holatni ta'minlaydi
A) 1, 4, 5, 8 B) 2, 4, 6, 7 C) 2, 3, 6, 8 D) 1, 4, 5, 7
48. Qaysi javobda suvda bolalaydigan sutemizuvchilar to'g'ri ko'rsatilgan?
1) tulen; 2) kasatka; 3) kashalot; 4) delfin; 5) morj; 6) dengiz mushugi; 7) pingvin; 8) kit
A) 2, 3, 4, 8 B) 1, 4, 6, 7 C) 1, 2, 4, 6 D) 2, 3, 5, 7
49. Itlarning bir zotida tanasi rangi ikki juft allel bo'lmagan genlar bilan boshqariladi. Genotip A-B- holatda tanasi rangi qora, A-bb holatda malla; aaB- holatda jigarrang hosil bo'ladi. Ikki juft retsessiv genga ega bo'lgan itlar tanasi och sariq rangda bo'ladi. Qora urug'ochi va malla rangdagi erkak itlar chatishtirilganda qora, malla, och sariq, jigarrang itlar hosil bo'lgan. Jigarrang kuchukchalarni hisobga olmaganda, barcha genotipik guruhlar orasida digeterozigotalar necha foizni tashkil etadi?
A) 20 B) 25 C) 50 D) 40
50. Ayirish sistemasi malpigi naylaridan (a), yashil bezlardan (b), yagona buyrakdan (c) va tasmasimon juft buyrakdan (d) iborat organizmlar to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) eshakqurt; 2) suvarak; 3) yaydoqchi; 4) bitiniya; 5) tridakna; 6) salamandra; 7) gulmoy
A) a-2, 3 b-1; c-4, 5; d-6, 7 B) a-4, 5; b-1, 2, 3; c-6; d-7
C) a-4; b-1, 2; c-3, 5; d-6, 7 D) a-1, 2; b-3, 4; c-5; d-6, 7
51. Qaysi javobda magnoliyatoifalarga mansub bo'lmasada chang donalari hosil qiluvchi o'simliklar to'g'ri berilgan?
A) archa, plaun, suv qirqqulog'i
B) ginkgo biloba, saur, pixta C) funariya, pixta, archa
D) zuhrasoch, qirqquloq, rafleziya
52. Qaysi javobda hind maynasi uchun xos bo'lgan belgilar ko'ratilgan?
1) biologik progress holatida; 2) biologik regress holatida; 3) o'troq qush; 4) ko'chib yuruvchi qush; 5) tanasi birmuncha yirik, tajovuzkor; 6) qarq'alar bilan gala hosil qiladi; 7) tez urchiydi; 8) xilma-xil oziq bilan oziqlanadi
A) 1, 4, 7, 8 B) 1, 3, 5, 7 C) 2, 3, 7, 8 D) 2, 4, 6, 8
53. Qaysi organizmlar tanasida moddalar almashinuvi jadal boradi?
1) iguana; 2) gatteriya; 3) qaldirg'och; 4) salamandra; 5) kapachi; 6) semga; 7) kasatka; 8) gaval; 9) jo'rchi
A) 3, 5, 6, 9 B) 5, 6, 7, 9 C) 1, 2, 4, 7, 8 D) 3, 5, 7, 9
54. Sershox qirqbo'g'im va funariyaning umumiy xususiyatlarini aniqlang.
1) poya-bargli o'simlik; 2) ildizpoyali ko'p yillik o't; 3) jinsiy va jinsiz bo'g'in gallanadi; 4) jinsiy a'zolari bir hujayrali; 5) hayotida jinsiy bo'g'in ustunlik qiladi; 6) sporangiyda sporalar yetiladi; 7) sporalar yordamida ko'payadi; 8) ildizpoyasidan vegetativ ko'payadi; 9) spermatozoidlari ko'p xivchinli; 10) sporangiydagi sporofillarda o'rnashgan
A) 3, 4, 5, 7, 9, 10 B) 2, 3, 7, 8 C) 1, 3, 6, 7 D) 1, 3, 5, 6, 7, 10
55. Qaysi o'zgarishlar sitogenetik usulda o'rganilgan?
1) translokatsiya; 2) duplikatsiya; 3) polidaktiliya; 4) gemofiliya; 5) poliploidiya; 6) qandli diabet; 7) inversiya; 8) deletsia; 9) Klaynfelter sindromi; 10) braxidaktiliya.
A) 1, 2, 5, 8, 9 B) 1, 2, 4, 7, 10 C) 2, 6, 7, 8 D) 1, 2, 3, 7, 8
56. Quyidagi qaysi misollar divergensiya hodisasiga mos kelmaydi?
1) yovvoyi bankiv tovug'idan sertuxum zotlarning kelib chiqishi;
2) yovvoyi kaptar turidan kaptar zotlarining yaratilishi;
3) oddiy va xaltali krotning tashqi tomondan o'xshashligi;
4) akula va ixtiozavr tanasining suyri shaklida bo'lishi;
5) ixtiozavr va delfinning tana tuzilishining o'xshashligi;
6) karam navlarining yovvoyi karam turidan kelib chiqishi.
A) 3, 4, 5 B) 3, 5, 6 C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 6

57. Berilgan moddalarning qaysilari uglevod (a), oqsil (b), lipid (c), polisaxarid (d) hisoblanadi?
1) albumin; 2) sitoxrom; 3) somototropin; 4) laktoza; 5) glyukoza; 6) xolesterol; 7) selliyuloza; 8) endonukleaza; 9) antitelo; 10) steroid; 11) riboza; 12) saxaroza; 13) kraxmal; 14) xitin; 15) polimeraza; 16) esterogen
A) a-4, 5, 6, 11, 13, 15; b-1, 3, 8, 9, 16; c-6, 8, 10, 16; d-7, 13, 14
B) a-4, 5, 12, 13, 14; b-1, 3, 9, 10; c-6, 8, 10, 15; d-7, 13
C) a-5, 6, 9, 12, 16; b-1, 3, 8, 10; c-6, 8, 10, 15; d-13, 14
D) a-7, 11, 12, 14; b-2, 3, 8, 15; c-6, 10, 16; d-7, 14
58. Terining rangi odamlarda ikki xil gen bilan belgilanadi. *AABB* genotipli odamlarning terisi qora, *aabb* genotipli odamlarniki oq bo'ladi. Genotipda uchta dominant gen bo'lsa qoramtir, ikkita bo'lsa oraliq, bitta bo'lsa oqish bo'ladi.
Terisi oraliq rangdagi digeterozigota ayol va erkak turmushidan terisi oraliq rangli farzandlar tug'ilish ehtimoli necha foiz bo'ladi?
A) 66,7 B) 6,25 C) 25 D) 37,5
59. Eshitish analizatorining periferik qismi qayerda joylashgan?
A) chig'anoq ichida B) dahliz va yarim doira kanallarida
C) quloq supراسi va tashqi eshituv yo'lida
D) nog'ora pardada
60. Sog'lom odam yuragining o'ng qorinchi tuzilishi va faoliyati to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) devori qalin, muskullari kuchli rivojlangan; 2) devorining ichki yuzasi biriktiruvchi to'qimadan iborat; 3) qonni aortaga haydaydi; 4) bo'lmachadan uch tavaqali klapan bilan ajralib turadi; 5) qonni o'pka arteriyasiga haydaydi; 6) bir marta qisqarib bo'shshishi sistola deyiladi; 7) kengayishi diastola deyiladi; 8) u orqali arterial qon o'tadi; 9) bir marta qisqarganda 65-70 ml qonni aortaga chiqaradi; 10) u orqali venoz qon o'tadi
A) 4, 5, 7, 10 B) 2, 4, 6, 8, 9 C) 1, 3, 4, 8 D) 2, 5, 7, 9
61. Retsessiv genlarga ega individlarning markazdan chetga chiqish qonunini birinchi bo'lib aniqlagan olimni toping.
A) I.I.Shmalgauzen B) Chebaksarov C) N.I.Vavilov
D) J.Xoldeyn
62. Ayirish organlari halqali chuvalchaglarnikiga o'xshash bo'ladigan organizmlarni aniqlang.
A) oq planariya, daryo qisqichbaqasi
B) suv shillig'i, zog'ora baliq, baqa
C) lansetnik, oq planariya, suv shillig'i
D) baqachanoq, krevetka, lansetnik
63. Qaysi javobda zangori sachratqiga xos bo'lmagan xususiyat keltirilgan?
A) Suttikandoshchalar oilachasiga mansub
B) Savatchasidagi gullari tilsimon
C) Gullari ikki jinsli
D) Savatchaning atrofidagi gullari soxta tilsimon
64. Nuklein kislotalar molekulasida nukleotidlar o'zaro fosfodiefir bog'lari orqali bog'lanadi. i-RNK molekulasida 298 ta fosfodiefir bog'i bo'lsa, ushbu i-RNK sinteziga asos bo'lgan DNK fragmenti qo'sh zanjiridagi nukleotidlar sonini aniqlang.
A) 596 ta B) 600 ta C) 598 ta D) 299 ta
65. Xemotripsinogen fermenti 245 ta aminokislotadan iborat. Shu ferment sintezi uchun javobgar DNK qo'sh zanjirida adeninli nukleotidlar umumiy nukleotidlarning 20% ini tashkil etadi. Adenin va timin nukleotidlar orasida 2 ta vodorod bog', guanin va sitozin o'rtasida 3 ta vodorod bog' bo'lishi ma'lum bo'lsa, ushbu DNK bo'lagidagi guanin va sitozin orasidagi vodorod bog'lar sonini toping.
A) 441 B) 588 C) 1323 D) 294
66. Shimoliy Amerikada qor bo'ronidan so'ng normal qanotli chumchuqlarning yashab qolishi (a), kuchli shamol tez-tez bo'ladigan okean orollarida kalta qanotli hasharotlarning yashab qolishi (b) qanday hodisalarga misol bo'ladi?
A) a-stabillashtiruvchi tanlanish; b-harakatlantiruvchi tanlanish
B) a-stabillashtiruvchi tanlanish; b-stabillashtiruvchi tanlanish
C) a-harakatlantiruvchi tanlanish; b-harakatlantiruvchi tanlanish
D) a-harakatlantiruvchi tanlanish; b-stabillashtiruvchi tanlanish
67. Oziq zanjiri to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) O'simlik - sichqon - ilon - tipratikan
B) O'simlik - kaltakesak - mangust - ilon
C) O'simlik - sichqon - tipratikan - ilon - tulki
D) O'simlik - toshbaqa - boltayutar - sarisor
68. Odam organizmidagi organlar faoliyatini boshqarishda va moddalar almashinuvidagi ta'siri bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan gormonlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) ADG va tiroksin, buyrak ishida
B) intermedin va melatonin, pigment almashinuvida
C) adrenalin va vazopressin, yurak ishida
D) androgen va esterogen, jinsiy bezlar faoliyatida
69. Odamlarda kechadigan reabsorbsiya jarayoni kuchaysa (a) va susaysa (b) siydik ajralishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
1) ko'payadi; 2) kamayadi; 3) siydik ajralishiga ta'sir etmaydi.
A) a - 1; b - 2 B) a - 2; b - 3 C) a - 3; b - 1
D) a - 2; b - 1
70. Arpa o'simligida xlorofill pigmentini sintezlashda ikkita ferment qatnashadi. Ularning bo'lmasligi pigment sintezining buzilishiga olib boradi. Har bir fermentning sintezi har xil autosomalarda joylashgan dominant (A va B) genlar bilan ifodalanadi. Birinchi ferment sinteziga javobgar genning bo'lmasligi o'simliklarning oq rangda, ikkinchi ferment sinteziga javobgar genning bo'lmasligi o'simliklarning sariq rangda bo'lishiga olib keladi. Ushbu genlarning birgalikda bo'lmasligi o'simlikning oq rangini, birgalikda bo'lishi yashil rangini ta'minlaydi. Agar digeterozigotali arpalar o'zaro chatishtirilsa, avlodda olingan barcha o'simliklar orasidan oq rangli o'simliklarning necha foizi gomozigotali bo'ladi?
A) 50 B) 12,5 C) 6,25 D) 25
71. Qaysi javobda parmeliyaga xos belgilar to'g'ri ko'rsatilgan?
1) tayoqchasimon bakteriya; 2) bargsimon lishaynik; 3) yopishqoq lishaynik; 4) tarkibida mezosoma bor; 5) tarkibida lixenin bor; 6) qobig'i murein moddasidan iborat; 7) tarkibida xitin moddasi bor
A) 1, 4, 6 B) 3, 4, 6 C) 2, 5, 7 D) 3, 5, 7
72. Qaysi javobda ro'vak to'pgulli o'simliklar to'g'ri ko'rsatilgan?
1) shuvoq; 2) sholg'om; 3) terakbargli liftok; 4) rediska; 5) sholi; 6) partenotsissus; 7) qashqarbeda; 8) qamish
A) 1, 4, 5, 6 B) 3, 5, 6, 8 C) 1, 2, 5, 6 D) 1, 6, 7, 8

73. 0,02 mol kaliy dixromatni qaytarish uchun necha gramm natriy nitrit va sulfat kislota zarur?
A) 5,52; 7,84 B) 4,14; 13,72 C) 5,52; 13,72 D) 4,14; 7,84
74. CH_4 1500°C da qizdirilganda C_2H_2 hosil qiladi. Agar olingan gazlar aralashmasida hajm jihatdan 45% vodorod mavjud bo'lsa, reaksiya unumini (%) toping.
A) 26,64 B) 42,86 C) 40,04 D) 66,72
75. Na_2SO_3 va $CrCl_3$ eritmaları qanday nisbatda aralastirilsa, hosil bo'lgan eritmada sulfit ionlari mavjud bo'lmaydi? (gidroliz hisobga olinmasin)
1) $2CrCl_3 + 3Na_2SO_3$; 2) $1CrCl_3 + 3Na_2SO_3$;
3) $3CrCl_3 + 2Na_2SO_3$; 4) $3CrCl_3 + 5Na_2SO_3$;
5) $3CrCl_3 + 4Na_2SO_3$; 6) $2CrCl_3 + 5Na_2SO_3$
A) 2, 4, 6 B) 1, 3, 5 C) 3, 5, 6 D) 1, 2, 4
76. Natriy karbonat va natriy gidrokarbonatdan iborat 60 g aralashma kuydirilganda 2,7 g suv ajralib chiqqan bo'lsa, aralashmadagi Na_2CO_3 va $NaHCO_3$ ning massa ulushlarini (%) mos ravishda aniqlang.
A) 58; 42 B) 40; 60 C) 55; 45 D) 48; 52
77. 148,8 g Na va K dan iborat aralashmaga suyultirilgan HNO_3 ta'sir ettirilganda argonga nisbatan 10% og'ir bo'lgan 0,6 mol gaz ajraldi. Hosil bo'lgan natriyli tuzning massasini (g) toping. Metallar faqat kislota bilan ta'sirlashadi deb hisoblang.
A) 102 B) 210 C) 200 D) 204
78. 0,14 kg temir (III) gidrofosfatda nechta atom mavjud?
A) $6,02 \cdot 10^{23}$ B) $0,35 \cdot 10^{23}$ C) $4,21 \cdot 10^{24}$ D) $1,02 \cdot 10^{24}$
79. 2 ta π va 4 ta σ bog'ga ega bo'lgan moddada xlorning gibridlanish turini aniqlang.
A) sp B) sp^2 C) bunday modda mavjud emas D) sp^3
80. HNO_2 va $HClO_2$ molekullari uchun umumiy bo'lmagan xususiyatlarni tanlang.
1) markaziy atomning valentligi;
2) markaziy atomning gibridlanish turi;
3) molekula hosil bo'lishida qatnashgan orbitallar soni;
4) markaziy atomning oksidlanish darajasi;
5) markaziy atomning elektron konfiguratsiyasi.
A) 1, 3, 4 B) 1, 4 C) 2, 3, 5 D) 2, 5
81. Tarkibida bitta o'rinbosari bo'lgan 0,4 mol aromatik uglevodorod kislotali sharoitda oksidlanishidan olingan gaz modda kislород bilan aralastirilganda ($D_{H_2}=20,8$) 11,2 l gazlar aralashmasi olindi. Aromatik uglevodorod tuzilishini aniqlang.
A) propilbenzol B) o-ksilol C) etilbenzol D) metilbenzol
82. $0,088 \cdot 10^2$ g etilasetatning kislotali gidrolizidan olingan karbon kislota o'yuvchi natriy eritmasidan o'tkazilganda 2,05 g mahsulot olindi. Agar birinchi reaksiya unumi ikkinchi reaksiya unumiga teng bo'lsa, reaksiya unumini (%) toping.
A) 90 B) 60 C) 50 D) 75
83. Oddiy superfosfat ($Ca(H_2PO_4)_2 \cdot CaSO_4$) tarkibidagi σ - va π -bog'lar sonini aniqlang.
A) 20; 2 B) 18; 4 C) 16; 4 D) 20; 4
84. Massasi 80 g $NaCl$, $CaCO_3$ va ZnS aralashmasi ortiqcha xlorid kislota bilan ta'sirlashganda 0,6 mol gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Ushbu gazlar SO_2 bilan ta'sirlashganda 19,2 g qattiq modda olindi. Dastlabki aralashmadagi moddalarning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 26,5; 25; 48,5 B) 20; 50; 30 C) 45; 10,5; 45,5 D) 15,5; 35,5; 49
85. $K_2SO_4 \cdot Al_2(SO_4)_3 \cdot nH_2O$ tarkibli kristallogidratda 66,2% kislород bo'lsa, n ning miqdorini aniqlang.
A) 23 B) 21 C) 19 D) 25
86. 16% li ammiak eritmasini tayyorlash uchun 58,24 l (n.sh.) ammiak necha millilitr suvda eritilishi kerak?
A) 218 B) 306 C) 232 D) 276
87. Elektronlari soni bir xil bo'lgan metan va argon aralashmasining 0°C va 1 atm bosimdagi zichligini (g/l) aniqlang.
A) 1,3 B) 3,4 C) 2,2 D) 1,1
88. PbS ning 0,75 mol O_3 bilan oksidlanishidan hosil bo'lgan tuzning massasini (g) va gazning hajmini (l, n.sh.) toping.
A) 227,2; 16,8 B) 113,6; 16,8 C) 113,6; 8,4 D) 227,2; 84
89. $K_2E_2O_7$ birikmasi tarkibidagi E ning elektron konfiguratsiyasi $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6$ dan iborat bo'lsa, shu elementni aniqlang.
A) S B) Cr C) Mn D) P
90. Gustavson usuli bo'yicha 2,6-dixloroktandan qanday sikloalkan olinadi?
A) etilsiklogeksan B) izopropilsiklopentan C) 1-metil-2-etilsiklopentan D) 1,1-dimetilsiklogeksan
91. 11,4 g Li va Mg aralashmasi yetarli sharoitda azot atmosferasida qizdirilganda hosil bo'lgan aralashma tarkibida 12,6 g nitridlar mavjudligi aniqlandi. Hosil bo'lgan aralashmadagi nitridlar massa ulushini (%) aniqlang. (Birinchi reaksiyaning unumi 80%, ikkinchi reaksiyaning unumi 70%)
A) 36; 64 B) 31,4; 51,3 C) 55,5; 44,4 D) 36; 45
92. 100 g 96% li CH_3OH ning suvli eritmasi to'liq alkogolyatga aylanishi uchun necha gramm Na metali bilan ta'sirlashishi kerak?
A) 92 B) 74,11 C) 69 D) 80,5
93. Agar azot konsentratsiyasi uch marta oshirilsa, quyidagi reaksiya tezligi qanday o'zgaradi?
 $N_2 + O_2 = 2NO$
A) 3 marta kamayadi B) 6 marta kamayadi C) 6 marta ortadi D) 3 marta ortadi
94. Keton va aldegidlar bilan reaksiyaga kirisha oladigan moddalarni aniqlang.
1) NH_2OH ; 2) $Br_2 (h\nu)$; 3) kumush (I) oksidning ammiakdagi eritmasi; 4) $NaHSO_3$; 5) $CH_3OH (CuSO_4$ kat. ishtirokida); 6) sianid kislota; 7) $CuSO_4 + NaOH$
A) 1, 3, 5, 7 B) 2, 4, 5, 7 C) 1, 2, 4, 6 D) 1, 3, 4, 6
95. Kalsiy ionining elektron konfiguratsiyasi quyidagi qaysi zarrachaning elektron konfiguratsiyasi bilan bir xil?
A) brom ioni B) kaliy atomi C) argon atomi D) magniy ioni
96. CO_2 va C_2H_4 ning hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda, 393,5 va -52,4 kJ/mol ga teng. H_2O ning hosil bo'lish issiqligini (kJ/mol) toping. (56 g etilen gazi yonishidan 2646 kJ issiqlik ajraladi.)
A) 241,8 B) 258,8 C) 269,1 D) 179,4
97. 0,2 mol uratsilning yonishi uchun yetarli miqdordagi kislородni olishga sarflanadigan $KMnO_4$ massasini (g) toping.
A) 252,8 B) 126,4 C) 245,8 D) 265,4
98. Noma'lum elementning xloridi va perxloratining molyar massalari nisbati 1:2,094 ga teng. Noma'lum elementni aniqlang.
A) K B) Na C) Mg D) Li

99. 0,4 mol oltingugurtning mo'l miqdordagi kislorodda yonishidan ajralib chiqqan 11,2 l gazlar aralashmasi katalizatoridan o'tkazildi va $Ba(OH)_2$ ning 0,4M li eritmasiga shimdirildi. Eritma to'la neytrallangan bo'lsa, hosil bo'lgan cho'kmaning massasini (g) aniqlang.
A) 90 B) 86,8 C) 91,6 D) 93,2
100. Quyida tartib nomeri berilgan elementlarning ionlanish-potensial qanday o'zgaradi?
 $20 \xrightarrow{1} 19 \xrightarrow{2} 11 \xrightarrow{3} 1$
a) ortadi; b) kamayadi
A) 1 b; 2 a; 3 a B) 1 b; 2 b; 3 b C) 1 a; 2 a; 3 a
D) 1 a; 2 b; 3 b
101. $0,09 \cdot 10^2$ g sut kislotasi mo'l miqdordagi natriy gidroksid eritmasidan o'tkazilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) toping. Reaksiya unumi 75%.
A) 11,2 B) 13,4 C) 8,4 D) 10,05
102. Quyidagi yadro reaksiyasidagi x va y larning qiymatini aniqlang. ${}_{92}^{238}U \rightarrow {}_{89}^{230}Ac + x + \beta + y \alpha$
A) 6, 3 B) 3, 8 C) 5, 4 D) 7, 4
103. C_7H_{16} tarkibli uglevodorodning izomerlari soni nechta?
A) 7 ta B) 9 ta C) 5 ta D) 6 ta
104. 101,6 g molekulyar yodda qancha struktur birlik bor?
A) $2,4 \cdot 10^{23}$ B) $1,2 \cdot 10^{23}$ C) $1,5 \cdot 10^{23}$ D) $0,2 \cdot 10^{23}$
105. 0,35% li KOH ning 800 g eritmasi 10 A tok bilan 38600 sekund davomida elektroliz qilindi. Eritmaning pH qiymati 13 ga teng bo'lsa, hosil bo'lgan eritmaning zichligini (g/ml) toping.
A) 1,125 B) 0,752 C) 1,658 D) 1,528
106. 63,36 g aldegid 65,12 g spirtning oksidlanishidan hosil bo'lsa, shunday massadagi spirdan olinadigan kislotaning bariyli tuzi massasini (g) va undagi kislorod atomlari sonini hisoblang.
A) 98,56; $5,3 \cdot 10^{23}$ B) 136,84; $10,6 \cdot 10^{23}$
C) 311; $24,08 \cdot 10^{23}$ D) 311; $10,6 \cdot 10^{23}$
107. Olmos, grafit, karbindagi kristall panjaraning shakli, gibrilidanish turi va valent burchaklari mos ravishda to'g'ri ko'rsatilgan javoblarni aniqlang.
1) tetraedr; geksogonal qatlamli; chiziqli polimer; 2) sp^3 ; sp^2 ; sp ; 3) 120° ; 180° ; $109,5^\circ$; 4) piramida; chiziqli polimer; geksogonal qatlamli; 5) sp^3 ; sp ; sp^2 ; 6) $109,5^\circ$; 120° ; 180°
A) 1, 2, 6 B) 1, 2, 3 C) 4, 5, 6 D) 4, 2, 3
108. Temir (II) va temir (III) sulfatlaridan iborat 0,4 mol aralashma suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritmaga (temir ionlarini to'liq cho'ktirish uchun) 64 g $NaOH$ sarflandi. Dastlabki aralashmadagi moddalarning mol nisbatini toping.
A) 1:3 B) 3:1 C) 1,5:2,5 D) 1:1